

BUXORO AMIRLIGIDA DAVLAT BOSHQARUVI

Xaydarov.I.M

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”
kafedrasi professori, tarix fanlari doktori (DSc).*

e-mail: izzatillakhon@gmail.com

Ibragimova Fotima

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi”
yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*

e-mail: ibragimovafotima563@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Buxoro amirligidagi davlat boshqaruvi va siyosiy tuzumi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Unda amirlikdagi boshqaruv tuzumi, mansablar, unvonlar va amallar haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek mansab egalarining amirlikdagi o‘rni va olib borilgan faoliyati ham keltirigan.*

Kalit so‘zlar: *Buxoro amirligi, davlat boshqaruv tizimi, mansablar, unvonlar va amallar.*

THE SYSTEM OF GOVERNANCE IN THE BUKHARA EMIRATE

Abstract: *This article provides information about the system of governance and political structure of the Bukhara Emirate. It discusses the administrative system, official positions, titles, and duties within the emirate. It also highlights the role and activities of officeholders in the functioning of the state*

Keywords: *Bukhara Emirate, public administration, positions, titles, and duties.*

ГОСУДАРСТВЕННОЕ УПРАВЛЕНИЕ В БУХАРСКОМ ЭМИРАТЕ

Аннотация: *В данной статье представлена информация о системе государственного управления и политическом строе Бухарского эмирата. В ней рассматриваются система управления в эмирате, должности, титулы и служебные обязанности. Также освещаются роль должностных лиц в эмирате и их деятельность.*

Ключевые слова: *Бухарский эмират, государственное управление, должности, титулы и обязанности.*

Kirish. Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rin tutgan Buxoro amirligi XVIII asrning ikkinchi yarmidan XX asr boshlarigacha mavjud bo‘lgan yirik siyosiy tuzilmadir. Ushbu davlat mang‘itlar sulolasi hukmronligi davrida shakllanib, o‘ziga xos davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-siyosiy munosabatlari hamda diniy asoslangan hokimiyat modeli bilan ajralib turadi. Buxoro amirligi nafaqat hududiy jihatdan, balki siyosiy va ma‘muriy boshqaruv tizimi jihatidan ham Markaziy Osiyodagi boshqa davlatlar orasida muhim o‘rin egallagan. Ushbu davrda shakllangan boshqaruv tizimi sharqona monarxiya an‘analari, islomiy huquqiy me‘yorlar hamda mahalliy urf-odatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi asosida rivojlangan. Buxoro amirligida oliy hokimiyat amir qo‘lida jamlangan bo‘lib, u siyosiy, ma‘muriy va sud hokimiyatining asosiy inson sifatida faoliyat yuritgan. Davlat boshqaruvi tizimida diniy hokimiyat muhim o‘rin tutgan bo‘lib, amir hokimiyati shariat qonunlari bilan asoslab berilgan. Shu bilan birga, davlat boshqaruvida saroy amaldorlari, harbiy boshliqlar, ulamolar hamda mahalliy hokimlar muhim rol o‘ynagan. Sulolaga Rahimbiy ibn Hakimiy asos solgan. Dastlab u otaliq lavozimida faoliyat olib borgan. U 1756-yilga kelib ruhoniylar, sayyidlar va xo‘jalar tomonidan tayinlangan. Dastlab Rahimbiy taxtni “noib ul-hukumat” (hokim o‘rinbosari) lavozimida boshqargan. Keyinchalik Doniyolbiy ham xonlikka davo qilmay avval Fozilto‘rani, keyin esa Abdulg‘oziyni xon deb e‘lon qilib, o‘zini noib deb hisoblagan. Amir Shohmurod hukmronlik yillarida 1785-yilda u amir unvoni bilan taxtga kelgan¹⁵¹.

Adabiyotlar sharhi. Eshonov B.J, Odilovning A.A. “O‘zbekiston tarixi” kitobida Buxoro amirligidagi davlat boshqaruvi tizimi, mansablar, unvonlari haqida batafsil keltirib o‘tilgan. Shuningdek, Sayid Olimxon o‘zining “Buxoro xalqining hasrati tarixi” asarida Buxoro amirligining siyosiy va idoraviy tashkilotlari hamda davlat boshqaruvi haqida ma‘lumotlar berilgan. Omonullo Bo‘riyevning “Buxoro amirligida davlat boshqaruvi” asarida Buxoro amirligi boshqaruv tizimiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida davlatning ma‘muriy-hududiy tuzilishi, viloyatlar boshqaruvi hamda qonunchilik tizimi tahlil qilingan. Ushbu asarda boshqaruvning hududiy jihatlari nisbatan chuqur o‘rganilgan bo‘lsada, markaziy hokimiyat organlarining o‘zaro munosabatlari masalasi yetarli darajada ochib berilmagan. Azamat Ziyoning “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi” asari esa davlat boshqaruvi keng tarixiy mavzuda tahlil qiladi. Muallif Buxoro amirligi boshqaruv tizimini sharqona monarxiya ko‘rinishi doirasida baholab, undagi markazlashuv darajasi, diniy hokimiyat va siyosiy munosabatlarni ilmiy asosda izohlaydi.

¹⁵¹ Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. - Toshkent: Fan. 1991. – B. 18.

Natijalar. Buxoro amiri Sayid Olimxon o‘zining “Buxoro xalqining hasrati tarixi” asarida Buxoro amirligining siyosiy va idoraviy tashkilotlari hamda davlat boshqaruvi haqida ma‘lumotlar berib, jumladan quyidagilarni yozadi: “Buxoro amirlari hukm yuritishlarida shariat usul va odatlariga rioya qilar edilar. Buxoroning islom ulamolari amirni payg‘ambar xalifasi - o‘rinbosari, usul va shariat himoyachisi deb bilishardi. Amirning tirikchiligi butunlay shariatga mos bo‘lardi, uni buzish mumkin emas edi. Buxoro xonlari mang‘itlarning o‘zbek toifasidan bo‘lgan. Buxoro podshohlarini o‘zbek odatlariga ko‘ra, to‘shakcha ustiga tabarrukona o‘tkazilib, sayyidlar, xo‘jalar va mullolar uni yerdan ko‘taradilar. Buxoro amrligi 28 ta viloyatga bo‘lingan edi. Bu viloyatlarga Nurota, Qorako‘l, Karki, Yakkabog‘, Kitob, G‘uzor, Darvoz va boshqalar kiritilgan. Bu bekliklar merosiy bo‘lib, keyinchalik S. Olimxon davriga kelib saylanish usuli bilan taxtga chiqariladigan bo‘lgan¹⁵². Buxoro amirligidagi eng yuqori unvon va mansablar, avvalo berilgan bo‘lib, davlatdagi eng yuqori unvon amir ul-umaro, otaliq, mang‘it urug‘i vakillariga, sayyidlarga, xo‘jalarga hamda ulamolarga hokim (valiy, bek), qo‘shbegi va devonbegilar bo‘lgan. Davlat amir, “amir ul-umaro” tomonidan boshqarilib, u amalda va rasman cheklanmagan huquqlarga ega bo‘lgan. Otaliq unvoni mang‘itlar davriga kelib amirlik ishlarda asosiy vakiliga aylandi, Amir Shohmurod davrida otaliqning vakolatlari cheklanib, unga Zarafshon daryosi suvining taqsimotini nazorat qilish, Buxoro kanali va dorug‘alik vazifasi yuklanadi. Buxoro amirligida davlat mutlaq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo‘lgan amir tomonidan boshqarilardi. Amirlikda asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, diniy va boshqa masalalar Buxorodagi bosh qarorgoh Arkda ko‘rib chiqilgan hamda hal etilgan. Bosh qarorgoh hisoblangan - Arkda amir va uning oilasidan tashqari qo‘shbegi, shig‘ovul, to‘pchiboshi, mirzaboshi kabi saroy amaldorlari o‘z oilalari va xizmatkorlari bilan yashashgan. Zaruratga qarab mamlakat poytaxtida amir boshchiligida davlat kengashi chaqirilib turilgan. An’anaga ko‘ra, lavozimlariga qarab 5 tadan 20 tagacha amaldorlar a‘zo bo‘lgan ushbu kengashda mamlakat hayotiga doir eng muhim masalalar ko‘rib chiqilgan. Ilgarigi davrlarda bo‘lgani kabi, mang‘itlar davrida ham, davlat boshqaruvi tizimi ikki bo‘g‘in markaziy va mahalliy boshqaruv tizimidan iborat bo‘lgan. Bu tizimlar musulmon davlatlariga xos bo‘lgan murakkab boshqaruv tarmoqlariga ega bo‘lgan hamda asosan amir, saroy amaldorlari, o‘zbek urug‘lari va qabila boshliqlari, ulamolar, harbiy boshliqlardan tashkil topgan. Buxoroda davlat boshqaruvi tarixida markaziy hokimiyat va mahalliy boshqaruv o‘rtasidagi muvozanat doimiy o‘zgaruvchan xarakterga ega bo‘lgan. Ba’zi davrlarda markaz kuchaygan bo‘lsa, boshqa davrlarda mahalliy hokimiyatlar nisbatan mustaqillikka ega bo‘lgan. Amirlikdagi markaziy hokimiyat amir boshchiligidagi saroy ayonlari qo‘lida bo‘lsa, mahalliy boshqaruv

¹⁵². Eshonov .B.J., Odilov.A.A O‘zbekiston tarixi. – Oliy o‘quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020. – B.255

viloyat noiblari qo‘lida edi¹⁵³. Mahalliy boshqaruv organlari nafaqat ma‘muriy vazifalarni bajargan, balki soliq yig‘ish, huquqiy tartibni saqlash va harbiy safarbarlik jarayonlarida ham faol ishtirok etgan.

Viloyat beklilari amirlikdagi mang‘it urug‘ vakillaridan tayinlangan. Viloyat beklari nisbatan kichik hududiy bo‘linmalar amlok mulklar hisoblanib, ularning boshqaruvchilari amlakdor deb atalgan. Bu davrda qo‘shbegi yoki qo‘shbegi eng oliy saroy mansabi hisoblanib, uning mavqeyi juda baland bo‘lgan. Amalda bosh vazir vazifasini bajargan bu mansab egasi iqtisodiy, siyosiy va harbiy masalalar bo‘yicha amirning eng yaqin odami hisoblangan. Saroydagi oliy mansablardan yana biri devonbegi bo‘lib, bu mansabdor vazir vakolatlariga ega bo‘lgan. Devonbegi moliya ishlari, daromad va xarajatlar hamda soliq yig‘ish ustidan to‘la nazorat qilish ishlariga javob bergan. Buxoro amiri huzurida yuqori lavozimdagi mansabdorlar bilan birga quyi amaldagi mansabdorlar ham mavjud edi. Amirlikning ma‘muriy tuzilishidagi eng quyi bo‘g‘in qishloq jamoalari bo‘lib, ularni oqsoqollar boshqargan. Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi istilosiga qadar hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston respublikalarining katta qismini o‘z ichiga olgan O‘rta Osiyodagi yirik davlat edi. Amir farmonlarini yetkazuvchi parvonachi, amirga doimo hamroh bo‘lib yuruvchi hidoyachi, amir maslahatchisi va xorijiy mehmonlarni kutib oluvchi shig‘ovul, amirga qaratilgan salom va ta‘zimlarni qabul qiluvchi javobgar salom og‘asi, amir dasturxoniga javobgar dasturxonchi, amir safari chog‘ida namozga chorlovchi imomi jilov, amir safari chog‘ida qonun bilan shug‘ullanuvchi mufti, amir maslahatchilari guruhi jamog‘a kabilar shular jumlasidandir. Amirga bo‘lgan sadoqati va xizmati uchun alohida shaxslar dodxoh, inoq, to‘qsabo, otaliq, eshikog‘asi kabi unvonlarga ega bo‘lishgan¹⁵⁴. XVIII - XIX asrning birinchi yarmida amirlikda eng oliy diniy mansab shayxulislom hisoblangan. Buxoro amirligida amir hokimiyati shariat qonunlari va ulamolar qo‘llab-quvvatlashi orqali mustahkamlangan. Bu esa davlat boshqaruvida diniy va dunyoviy hokimiyatning uyg‘unlashganini ko‘rsatadi. XIX asr o‘rtalaridan boshlab shayxulislom o‘rnini qozikalon egallaydi. Qozikalon - eng yuqori sudya bo‘lib, shariat qonunlarini ijro etish va nazorat qilish vakolatiga ega bo‘lgan.

Muftiylar ham amirlikda ahamiyatli kasb hisoblangan. Ular diniy-huquqiy masalalarda fatvo beruvchi olimlar bo‘lgan. Yuqorida eslatilgan amir huzuridagi kengashda din vakillaridan qozikalon, shayxulislom, naqib va rais qatnashgan. Amirlikdagi markaziy davlat boshqaruvida Buxoro shahri alohida o‘rin egallagan. Jumladan, Buxoro shahri hokimi amirning birinchi vaziri va boshqa viloyatlar boshqaruvchisi hisoblangan. Shahardagi jamoat

¹⁵³ . Eshov .B O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarix – Toshkent : Yoshlar, 2011. – B.337

¹⁵⁴ Azamat Z. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi -Toshkent: Sharq, 2000 –B.185

tartibini saqlash mirshablarga topshirilgan bo‘lib, ular shahar mirshabboshisiga bo‘ysunishgan. Buxoro shahri mirshabboshisiga barcha shaharlardagi mirshablar bo‘ysunishgan. Mang‘itlar davrida Buxoroda qo‘shbegi, qozikalon, bosh rais va mirshabboshi kabi mansablar birgalikda “to‘rt hokim” deb yuritilgan. Amirlikda amaldorlar o‘rtasida lavozim uchun raqobat va kurashlar ham bo‘lgan. Mahalliy beklar ba‘zan markaziy hokimiyatga bo‘ysunmaslikka harakat qilganlar. Ular diniy hokimiyat siyosiy jarayonlarda kuch sifatida ishtirok etganlar. XIX asrda Rossiya imperiyasi bosimi ortishi bilan siyosiy tizim yanada zaiflashib borgan.

Xulosa. Buxoro amirligining siyosiy tizimi, idora etish tartib-qoidalari, davlat ramzlari, unvon va mansablar haqida ko‘pgina olimlar tadqiqot ishlari olib borishgan. Ushbu tadqiqotlarning tahlillari shuni ko‘rsatadiki, mang‘itlar hukmronligi davrida davlat tizimida jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirilmagan. Bu davrda oliy hukmdor garchi amir unvoni bilan hokimiyatni boshqargan bo‘lsada, Buxoro amirligi ham o‘z tizimi, qonun-qoidalari, boshqaruv tartiblari va butun mohiyati bilan, o‘rta asrlar Movarounnahrda musulmon davlatlari, xususan Shayboniylar va Ashtarxoniylar tizmidan deyarli farq qilmagan. Ta’kidlash lozimki, manbalar va adabiyotlarda Buxoro amirligida mavjud bo‘lgan unvon, mansab hamda amallarga oid mal’umotlar chalkash, ko‘p hollarda bir-birini inkor etadi. Bu haqdagi ma’lumotlar to‘liq o‘rganilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Eshonov B.J, Odilov A.A. O‘zbekiston tarixi. Oliy o‘quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2020.
2. Amir Sayyid Olimxon Buxoro xalqining hasrati tarixi. – Toshkent:
3. Fan, 1999.
4. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent : Yoshlar, 2019.
5. Azamat Z. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. - Toshkent : Sharq, 2000.